

## INFINITIV GAPDA NP<sub>2</sub> O'RNIDA

Mamashafiyeva Farangiz Abdulloyevna

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gap qurilmasida infinitiv murakkabot kesimining gaplarda *to irritate her*, *to admire her* sintaktik birliklarni murakkab ot kesimning bir turi ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *ot kesim, infinitiv, komponentlar, to irritate her, tobe, to admire, gap, ravish, olmosh, bog'lovchi, the problem, the questions.*

Gapning shaxssiz shakllaridan infinitivga bag'ishlangan tadqiqotlarga gap qurilmasida infinitiv murakkab ot kesimning bir qismi vazifasida kelishi ta'kidlanadi [3].

Ammo berilgan misollarni komponentlarga ajratib tahlil qilinganda o'zgacha tushunchalarning mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

1. *To ask her questions is to irritate her*
2. *To see her is to admire her*

Bu gaplarda *to irritate her*, *to admire her* sintaktik birliklarni murakkab ot kesimning bir turi (a part of compound nominal predicate) deb ta'kidlanadi. Lekin birinchi gapda *to ask* elementiga *her* va *questions* tobe komponent hisoblanib, subordinativ aloqa asosida bog'lanadi, *to ask* navbatdagi element *is* bilan esa yadro predikativ aloqa yordamida bog'lanadi. *Her* elementi esa *to irritate* sintaktik birlikka tobe bo'lib, u ham subordinativ aloqa asosida gap qurilmasida ishtirok etadi. Bu gapni quyidagi yunksion, komponent modellarda va ularning morfologik xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

- (1) *To ask her questions is to irritate her*




yu.m.8.

NP1 ÑD ÑD NP2 ÑD ÑD  
 — . — . — . — . — . — ; k.m.8.  
 Vinf Pnp S Bef Vinf Pnp

Ikkinchi gapda ham xuddi shunday hosilani ko'rish mumkin:

- (2) *To see her is to admire her*



yu.m. 9.

NP1 ÑD NP2 ÑD ÑD

— . — . — . — . — . ; k.m.9.

Vinf Pnp Bef Vinf Pnp

Misollarning komponentlarga ajratib qilingan tahlilidan ma'lum bo'lishicha, *to irritate her* va *to admire* elementlar gapda kesimning bir qismi emas, balki gapning asosiy qismiga tobe element ekanligi ma'lum bo'ldi. Yugorida qayd etilgan tilshunoslar to be fe'lining yordamchi fe'l, bog'lama fe'l va mustaqil fe'l bo'lib qo'llanilishi nazardan chetda qolganligi sezilib turibdi:

(1) *To ask her is to irritate her*

Задавать ей вопросы значит раздражат ее

(2) *To see her is to admire her*

Будет ее значит восхищаться ей

Ingliz tilida berilgan misollarda asosan ajraladigan sintaktik birliklarni ham bir sintaktik ajralmas birikma deb qarash natijasida ushbu kamchiliklarga yo'l qo'yilgan deb tashxis qo'yish mumkin.

Undan tashqari infinitiv gapda murakkab kesimning bir qismi vazifasida kelganda bog'lovchilar yoki bog'lovchi olmoshlar yoki ravishlar *what, whom, where, when, how, which* kabilar bilan birga kelib bog'lovchi infinitiv frazani (a conjunctive Infinitiv phrase ) tashkil qiladi deb ta'kidlanadi. Bu fikrga ham qo'shilish qiyin. Shuning uchun ham quyidagi misollarni komponentlarga ajratib tahlil qilamiz.

(3) *The problem is where to find him*




NP1 NP2 ÑD ÑD ÑD

yu.m.10. — . — . — . — . ; k.m.10.

S Bef Pnr Vinf Pnp

(4) *The question is what to do*



NP1 NP2 ÑD ÑD

yu.m.11. — . — . — . ; k.m.11.

S Bef Pnr Vinf

(5) *The thing is how to do it.*



NP1 NP2 ÑD ÑD ÑD  
yu.m.12. — . — . — . — . — ; k.m.12.  
S Bef Pnr Vinf Pnp

Bu gaplarda ham birinchi sintaktik elementlar *the problem, the questions, the thing* gapda yadro predikativ 1(NP<sub>1</sub>) o'rnida kelib, yadro predikativ 2 (NP<sub>2</sub>) o'rida kelgan *is* bilan yadro predikativ aloqa yordamida bog'lanadi. Nisbiy olmoshlar esa gapda kelgan infinitivga *where, what, how* kabilar *fo find, to do* elementlariga tobe komponent bo'lib, infinitivga subordinativ aloqa yordamida bog'lanadi.

6. *She is never easy to find*

7. *The question was difficult to answer.*

Bu gaplarda ham infinitiv *to find* va *to answer* gap tarkibidagi yadro predikativ 2 o'rnida kelgan *is easy* va *was difficult* sintaktik birliklarga tobe komponent hisoblanib, subordinativ aloqa yordamida yadro predikativ 2 komponentlariga bog'lanadi. Ularni quyidagi yunksion va komponent modellar yordamida ko'rsatish mumkin:

(6) *She is never easy to find*



NP1 ÑD NP2 ÑD  
yu.m.13. — . — . — . — ; k.m.13.  
Pnf NgAdv cA Vinf

(7) *The question was difficult to answer.*



NP1 NP2 ÑD  
yu.m.14. — . — . — ; k.m.14.  
S cA Vinf

Bu borada aytish joizki, ushbu gaplarda infinitiv *to find, to answer* kesimning bir qismi vazifasida keladi deyishga asosiy sabab rus tilining ta'siri bo'lishi kerak.

*The question was difficult to answer - На этом вопрос было трудно ответить*

Gapda infinitiv modal fe'llar yoki ularning ikvivalentlari bilan birikib, gapda yadro predikativ 2 o'rmida kelgandagina, kesimning bir qismi vazifasida kelishi mumkin. Ingliz tili grammatikalarida gaplarda kesim o'rnida modal *fe'l + infinitiv* bilan birikib kelgan sintaktik birliklar “*qo'shma modal fe'l kesim*” deb nomlanadi<sup>[18]</sup>. Mazkur turdagi kesim modallik kategoriyasini ifodalashining bir turi hisoblanadi. O.S. Axmanova bu to'g'rida shunday deydi: “*Modallik tushuncha kategoriyasi bo'lib, u so'zlovchining*

*aytiladigan fikrga bo'lgan subyektiv munosabatini va aytiladigan fikrning real voqelikka bo'lgan munosabatini bildiradi*".

Ingliz tilida modallik kategoriyasi grammatik qatlamda olib qaralganda, ifodalanish maqsadiga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

- 1) morfologik usul (mayl kategoriyasi bilan bog'langan shakllari orqali ifodalanadi);
- 2) leksik usul (modal so'zlar, ishonch, ehtimollik, tasdiq hamda subyektiv bahoni ifodalovchi (certainly, of course, surely, really, perhaps, may be, probably va h.k.) so'zlar yordamida );
- 3) sintaktik usul (It is necessary, it is possible, it is important kabi jumlar bilan ifodalanadi);
- 4) leksik- grammatik usul (gapda modal fe'llar + fe'Ining noaniq shakli infinitiv bilan birikib keladi).

Ayni paytda, Ivanov P., Burlakova V.V., Pocheptsov G.G., fikriga qarasak: "... modal fe'llarda shaxs son kategoriyasi yo'q, ular barcha shaxslarda bir xil" [1981] deb ta'kidlaydi.

Ingliz tili materialida E.A. Zvereva, O.N. Truevtseva, NS, Shukayevalarning fikricha, german tillarida modal asosan, preterito-prezent guruhiga tobe bo'lib, o'zining morfologik xususiyatiga ega va ma'lum sintaktik vazifani bajaradi. Modal fe'llar leksik ma'no jihatidan modallikning —zaruriyat, imkoniyat, mumkinlik, istak-xohish kabi ma'no ottenkalarini ifodalab, gaplarda tarkibli modal fe'l kesimning bir qismi vazifasida keladi. [1957]


Modal fe'llar masalasini aniqlashda ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarida berilgan fikrlar bir xil emas. Masalan, V.L. Kaushanskaya va boshqalar *must, can-could, may-might, shall-should, will-would, dare, ought to, need* kabilar modal fe'llar deb tan olinsa [1973], K.N. Kachalova, E.E. Izrailovichlar esa *shall- should, will-would, so'zlarini to have, to be, to do* kabi ko'makchi fe'llarga qo'shib yuboriladi [2004], ammo *shall-should, will-would* so'zlari ko'makchi vazifasida kelgan *to have, to be, to do* fe'llariga nisbatan modal ma'nolarni ifodalaydi.

Umuman olganda, modal fe'llar gapda yaxlit o'zi bir sintaktik vazifani bajarmaydi, ular har doim infinitiv bilan birikib kelgandagina, o'zining modal ma'nolariga ega bo'ladi va gapda kesim yazifasida keladi:

1. I must write letters;
2. I must stop writing;
3. We must be well;
4. We must be out;
5. That must be mother.

Ushbu birinchi va ikkinchi gaplarning yunksion modellari bir xil, chunki ularning sintaktik aloqalari yadro predikativ va subordinativ aloqalardan iborat, komponent modellari ham bir xil bo'lsada, ularning

morfologik xususiyatlari farq qilishi mumkin:



NP1 NP2 ÑD NP1 NP2 ÑD  
yu.m.15. (1) — . — . — ; (2). — . — . — ;  
Pnp mVinf S Pnp mVinf Vg

Uchinchi va to'rtinchi, beshinchi gaplar ham bir xil yunksion modelga tushadi:

(3,5) yu.m.16. (4) yu.m.17.



NP1 NP2 NP1 NP2 ÑD  
(3) — . — ; (4). — . — . — ;  
Pnp mcA Pnp mVinf Adv

NP1 NP2  
(5) — . — .  
Pndm mcS

Gapning kesimi *must* + *infinitiv* yoki uning mugobillari bilan

ifodalanganda zaruriyat, buyrug, majburiyat kabi ma'nolarga ega bo'ladi. Modal fe'ldagi modal ma'nolar infinitivda ifodalangan ma'noga ta'siri bo'ladi. *Must* modal fe'lining muqobili *to have modal fe'li + infinitivning* quyidagi shakllari yordamida ifodalanadi: *had to + infinitiv, shall/ will have to + infinitiv, don't have to + infinitiv* kabi variantlar yordamida ifodalanadi.

Undan tashqari *must* modal fe'lining muqobili *to be to + infinitiv* quyidagi grammatik shakllarda berilishi mumkin:

- is to + infinitiv;
- are to + infinitiv;
- was /were to + infinitiv;
- was /were to be + o'tgan zamon sifatdoshi.

Ingliz tilida modal fe'l *can/could, to be able to + infinitiv* qurilmasidagi qobiliyat, ish-harakatning bajarilish imkoniyati kabi modal ottenkalari infinitiv orqali ifodalanadi. Modal fe'l *can* infinitiv bilan birga quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin: *can't + infinitiv*; *can't be* o'tgan zamon sifatdoshi; *can't + infinitiv* o'tgan zamon sifatdoshi; *couldn't + infinitiv*; *could be* + o'tgan zamon sifatdoshi; *couldn't be* + o'tgan zamon sifatdoshi; *couldn't have* + o'tgan zamon sifatdoshi, kabilar yordamida beriladi. *Can* modal fe'lining muqobili *to be able to* iborasi va infinitiv yordamida shaxsning qobiliyati va imkoniyatlarining mavjudligi va mavjud emasligi infinitiv yordamida ifodalanadi. U turli zamon shakllari orqali beriladi: *shall/will be able to + infinitiv, shan't/ won't be able to + infinitiv, have been able to + infinitiv, had been able to + infinitiv*.

Modal fe'l *may (might)* va uning muqobillari ham asosan infinitiv bilan birikib kelib, ish-harakatining bajarilishi mumkin yoki mumkin emasligini, ruxsat, ijozat kabi modal ma'no ottenkalarini ifodalaydi. Modal fe'l *may (might)* quyidagi shakllarda infinitiv bilan birga gapning kesimi vazifasida kelishi mumkin: *may/might +have, might have+o'tgan zamon sifatdoshi, may be+o'tgan zamon sifatdoshi, may have+o'tgan zamon sifatdoshi +P<sub>1</sub>, might + have to + infinitiv* kabilardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л., Кожевникова О.Ы., Прокофьева Е.Ф., Раинас З.М., Швирская С.Е., Тсирлина Ф.Й. Грамматика английского языка.- Л.: Просвещение, 1973.-319с.;
2. Качалова К.Н., Израилович Е.Е. Теорическая грамматика английского языка. - Бишкек: Туркестан, 2004. - 672с
- 3.Иванова И.Р., Бурлакова В.В., Почепсов Г.Г. Теорическая грамматика современного английского языка.- М.:Высшая школа, 1981.-285с.;
4. Зверева Е.А., Триевцева О.Н., Шукаева Н.С. Модальные глаголы английского языка. Л.: Наука, 1967, -239с.;